



Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari

Turgunbayev Toxirjon Abdugafurovich –
Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti,
umumqo'shin tayyorgarlik sikli dotsenti
E-mail: turgunboyevtoxirjon@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-0801-8674>

Annotatsiya. *Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kuzatish va suhbat metodlari qo'llanildi. Natijalarga ko'ra, vatanparvarlik tarbiyasi o'qituvchi shaxsida fuqarolik burchi, ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlovchi asosiy omil ekani aniqlandi. Xulosada, o'qituvchilarni tayyorlash tizimida vatanparvarlik g'oyalarini integratsiya qilish orqali ularning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlandi.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy kompetensiya, pedagogik jarayon, bo'lajak o'qituvchi, fuqarolik burchi, ma'naviyat, qadriyat, integratsiya, ta'lim tizimi, tarbiya, milliy g'oya, ijtimoiy mas'uliyat.*

Педагогические основы воспитания патриотизма в формировании духовно-нравственных компетенций у будущих учителей

Аннотация. Цель исследования определить педагогические основы патриотического воспитания в процессе формирования духовно-просветительских компетенций у будущих учителей. В работе использовались методы теоретического анализа, сравнительного анализа, наблюдения и интервью. Результаты показали, что патриотическое воспитание является важным фактором укрепления гражданского долга, нравственных ценностей и социальной ответственности педагога. В заключении подчеркивается, что интеграция идей патриотизма в систему подготовки учителей способствует развитию их духовно-просветительских компетенций и формированию высоконравственной, социально активной личности.

Ключевые слова: патриотическое воспитание, духовно-просветительская компетенция, педагогический процесс, будущий учитель, гражданский долг, духовность, ценности, интеграция, система образования, воспитание, национальная идея, социальная ответственность.

Pedagogical foundations of patriotic education in the formation of spiritual and educational competencies among future teachers

Annotation. The purpose of the study is to identify the pedagogical foundations of patriotic education in developing spiritual and educational competencies among future teachers. The study employed theoretical analysis, comparative analysis, observation, and interview methods. The results revealed that patriotic education serves as a crucial factor in strengthening teachers' civic duty, moral values, and social responsibility. The conclusion emphasizes that integrating patriotic values into teacher training programs effectively enhances students' spiritual and educational competencies and contributes to the formation of a morally mature and socially active personality.

Keywords: patriotic education, moral and educational competence, pedagogical process, future teacher, civic duty, spirituality, values, integration, education system, upbringing, national idea, social responsibility.

KIRISH

Globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, vatanparvar, ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash bugungi ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda. Bunday sharoitda o'qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning ma'naviy-ma'rifiy yetukligi va vatanparvarlik tuyg'ulari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki milliy g'oya va qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdiruvchi, ularni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalovchi shaxsdir.

Ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalar o'qituvchining shaxsiy qadriyatlari, axloqiy qarashlari, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faoliyatini ifodalovchi muhim ko'nikmalar majmuasidir. Bu kompetensiyalar vatanparvarlik tarbiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'qituvchining jamiyat oldidagi vazifasini, o'z xalqiga sadoqatini va o'quvchilarga namunaviy shaxs sifatida ta'sirini kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan davlat dasturlari, jumladan, "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi vatanparvarlik tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi. Ushbu hujjatlar asosida ta'lim muassasalarida yoshlarning ma'naviy barkamolligi, milliy g'ururi, tarixiy xotirasi va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha keng ko'lamli pedagogik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishning dolzarbligi shundan iboratki, ular kelajakda jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojida bevosita ishtirok etadi. Shu bois, pedagogik ta'lim tizimida o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash bilan birga, ularning milliy ongini, ijtimoiy faolligini va Vatanga muhabbatini rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik mexanizmlarni yaratish zarur.

Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslarini tahlil qilish, ularning samarali shakllanishi uchun ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni maqsad qilib oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Vatanparvarlik tarbiyasi va ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. XXI asrda global axborot oqimi, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo integratsiya sharoitida milliy o'zlikni saqlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning ma'naviy barkamolligini ta'minlash pedagogik faoliyatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi uning nafaqat kasbiy salohiyati, balki jamiyat oldidagi mas'uliyati va axloqiy yetuklik darajasini belgilovchi ko'rsatkich sifatida qaraladi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari bu yo'nalishning nazariy asoslarini boyitgan. Xususan, I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch" asarida ma'naviy yetuklik va vatanparvarlikni jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevori sifatida talqin qiladi[3]. B. Hasanov vatanparvarlik tuyg'usini o'qituvchi shaxsida shakllantirishda oilaviy, ijtimoiy va ma'naviy muhitning o'zaro ta'sir mexanizmlarini yoritib bergan[10]. D. Abdullaeva va M. Xolmatova tadqiqotlarida ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikning o'qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'zni tahlil qilingan bo'lib, ular pedagogik ta'limda vatanparvarlik komponentini mustahkamlash zarurligini asoslab bergan[4].

Xorijiy adabiyotlarda ham ushbu masalaga keng yondashuv kuzatiladi.

G. Hofstede madaniyatlararo qadriyatlar tizimi orqali milliy identifikatsiya, sadoqat va ijtimoiy birdamlikni ta'lim vositasida shakllantirishning ahamiyatini asoslaydi[11]. D. Dewey esa "tajriba orqali o'rganish" tamoyilini ilgari surib, vatanparvarlikni amaliy faoliyatda, hayotiy tajriba asosida rivojlantirish g'oyasini ilgari surgan[8]. Shuningdek, J. Banks o'qituvchilarni madaniyatlararo kompetensiyalar asosida tayyorlash orqali milliy va global qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi[7].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Mazkur tadqiqotda aynan shu nazariy asoslarni chuqur tahlil qilish hamda ularni amaliy jihatdan sinovdan o'tkazish maqsad qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi bir qancha ilmiy yondashuvlarga tayandi. Masalan, tizimli yondashuv vatanparvarlik tarbiyasi o'qituvchi shaxsining kasbiy, ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojini yagona tizimda o'rganish imkonini berdi. Bu yondashuv orqali pedagogik jarayonning barcha tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metod, vosita va natija) o'zaro bog'liqlikda tahlil qilishga erishildi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir talabaning individual qadriyatlari, milliy ong, fuqarolik mas'uliyati va o'zini anglash darajasiga asoslanib, vatanparvarlikni shaxsiy ehtiyoj va motivatsiya bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv vatanparvarlik tarbiyasini o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi tarkibiga kiruvchi integral sifat sifatida baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-amaliy metodlardan foydalanildi. Misol uchun, nazariy tahlil metodi pedagogik, psixologik, falsafiy va sotsiologik manbalar o'rganilib, vatanparvarlik tarbiyasining konseptual asoslari aniqlashtirildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida milliy va xorijiy pedagogik tajribalar tahlil qilinib, samarali ta'lim modellari solishtirishga erishildi.

Pedagogik kuzatish metodi orqali oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar faoliyatida vatanparvarlik elementlarining namoyon bo'lishi kuzatildi.

So'rovnoma va suhbat metodidan ham samarali foydalanildi pedagogika yo'nalishidagi 120 nafar talaba va 25 nafar o'qituvchi o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar orqali ularning vatanparvarlik haqidagi qarashlari o'rganishga erishildi.

Izlanish mobaynida eksperimental metoddan ham samarali foydalanildi, asosan o'quv jarayoniga vatanparvarlik mazmunidagi topshiriqlar, loyihalar va treninglar kiritilib, ularning ta'sir samaradorligi baholandi.

Tadqiqot natijalari sifat tahlili va statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarini rivojlantirishda vatanparvarlik tarbiyasi yetakchi omil ekanligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Shuningdek, o'quv jarayoniga vatanparvarlik g'oyalarini tizimli integratsiya qilish orqali o'qituvchilarda fuqarolik burchi, milliy g'urur, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiruvchi pedagogik mexanizmlar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini samarali shakllantirish murakkab, ammo tizimli pedagogik jarayondir. U shaxsning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, milliy o'zlikni anglash darajasi hamda kasbiy o'sish motivatsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishning poydevori ularning ta'lim mazmuniga milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma'naviy an'analarni chuqur singdirishdan boshlanadi. Shu maqsadda o'quv dasturlarida buyuk mutafakkirlar, ajdodlar, Vatan

mustaqilligi va taraqqiyoti yo'lida fidokorona xizmat qilgan shaxslar hayoti va faoliyatini keng yoritish zarur.

Masalan, Alisher Navoiy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hamid Olimjon singari tarixiy shaxslarning asarlari va faoliyati o'quv jarayonida keng o'rganilsa, bu yoshlarning milliy iftixorini oshiradi, ularni tarixiy o'zlikni anglashga, ma'naviy ildizlariga qaytishga undaydi. Bunday darslar nafaqat bilim berish, balki ma'naviy shakllanish, vatanparvarlik ruhini uyg'otishning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, o'qituvchi vatanparvarlik mazmunidagi mavzularni zamonaviy metodlar muammoli o'qitish, loyiha asosida ta'lim, interfaol metodlar orqali olib borsa, talabalarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijtimoiy faollik kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, vatanparvarlik faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy faoliyatda ifoda topganida samaradorlikka erishiladi. Talabalarni ijtimoiy loyihalar, ekologik tashabbuslar, tarixiy yodgorliklarni saqlash, mahalliy hamjamiyat faoliyatida ishtirok etish kabi tadbirlarga jalb etish orqali ularda fuqarolik burchi, jamoaga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usi shakllanadi.

Masalan, "Yoshlar Vatanni sevadi", "Tabiatni asrash-Vatanga xizmat", "Mahallam - mening faxrim" kabi tashabbuslar o'quvchilarni real ijtimoiy muhitda faol bo'lishga undaydi. Shu tariqa vatanparvarlik g'oyasi ularning amaliy harakatlari, ijtimoiy mas'uliyatlari va hayotiy qadriyatlariga aylanishi ta'minlanadi.

Amaliy faoliyatdagi ishtirok shaxsning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, u o'zini jamiyatning muhim a'zosi sifatida anglaydi. Natijada, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatda ijobiy o'zgarishlar yaratuvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ta'lim muassasasida yaratilgan muhitga bog'liq. Pedagogik muhit - bu faqat dars jarayoni emas, balki o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlar, o'quv maskanining axloqiy iqlimi va ma'naviy qadriyatlar tizimidir.

Agar o'qituvchi o'zining kundalik faoliyatida milliy qadriyatlarga sodiqlik, halollik, mas'uliyat, jamiyat manfaatini ustun qo'yish kabi fazilatlarni namoyon etsa, bu hol talabalar uchun bevosita tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining shaxsiy namunasi har qanday nazariy darslikdan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, ta'lim muassasasida vatanparvarlik ruhidagi devoriy gazeta, madaniy tadbirlar, milliy bayramlarga bag'ishlangan uchrashuvlar, ijodiy kechalar o'tkazilishi ham muhitni boyitadi. Shu tarzda yaratilgan ijtimoiy-psixologik atmosfera o'quvchilarni ma'naviy jihatdan uyg'unlashtiradi va ularni bir maqsad Vatan ravnaqiga xizmat qilish g'oyasiga yo'naltiradi.

Vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini ta'minlashda fanlararo integratsiya muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy-ma'rifiy fanlar, tarix, adabiyot, san'at, geografiya, hatto tabiiy fanlar mazmunida ham vatanparvarlik g'oyalarni uyg'unlashtirish orqali ta'lim jarayoni yaxlit tizimga aylanadi.

Masalan, tarix darslarida milliy ozodlik harakatlari, adabiyotda millat fidoyilari obrazlari, geografiyada O'zbekiston tabiati va resurslarini asrash g'oyalari orqali o'quvchi ongida Vatanga muhabbat, faxr va javobgarlik tuyg'ulari mustahkamlanadi.

Integrativ yondashuv o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, milliy g'ururini oshiradi va ularni turli fanlar orqali yagona maqsad yurt ravnaqiga xizmat qilish g'oyasiga yo'naltiradi. Shu bois, integratsiya nafaqat o'quv jarayonini samarali qiladi, balki shaxsning ma'naviy shakllanishiga ham kuchli turtki beradi.

O'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi bu nafaqat kasbiy mahorat va bilim darajasining ko'rsatkichi, balki shaxsning axloqiy qadriyatlari, milliy ong, fuqarolik

pozitsiyasi va jamiyatdagi faol ishtirokini o'zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, aynan vatanparvarlik tarbiyasi ushbu kompetensiyaning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy shakllanish jarayonida yetakchi o'rin egallaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasi o'qituvchining ma'naviy dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, yurt ravnaqi uchun mas'uliyat hissi va yosh avlodga o'rnatilgan bo'lish qobiliyatini belgilaydi. Shunday ekan, pedagog shaxsida vatanparvarlikning shakllanishi bu faqat bilim va ko'nikmalarni egallash emas, balki ma'naviy-axloqiy ideallar tizimini o'zlashtirishdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vatanparvarlik g'oyalarini faqat dars jarayonlari yoki o'quv qo'llanmalar orqali yetkazish o'quvchilar ongida chuqur iz qoldirmaydi. Chunki vatanparvarlik bu hayotiy tajriba, ijtimoiy faoliyat va o'qituvchining shaxsiy namunasi orqali shakllanadigan his-tuyg'u va e'tiqoddur. Shu bois, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z xulqi, nutqi, kundalik faoliyati va fuqarolik pozitsiyasi bilan Vatanga sadoqat, halollik, mas'uliyat va fidoyilik namunasi bo'lishi zarur.

Vatanparvarlik g'oyalarining samarali singdirilishi quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish.

Talabalarni milliy bayramlar, tarixiy sanalar, davlat ramzlari va madaniyatimizga oid tadbirlarga faol jalb etish ularning fuqarolik ongini kuchaytiradi. Bu jarayon o'quvchilarni nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi.

Ijtimoiy tashabbuslar va loyihalar orqali vatanparvarlikni amalda namoyish etish. O'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan "Yoshlar Vatan uchun", "Ona yurtga sadoqat bilan xizmat qilamiz", "Ekologik tozalikka hissa qo'shaylik" kabi loyihalar yoshlarni real hayotda o'z Vatani uchun mas'ul his etishga o'rgatadi.

Ta'lim muassasasining axloqiy-psixologik muhitini vatanparvarlik ruhida shakllantirish. Bu muhitda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, mas'uliyat va ijobiy muloqot hukm surishi lozim. Shunday atmosfera shakllangandagina vatanparvarlik tarbiyasi ichki ishonchga, ongli e'tiqodga aylanadi.

Fanlararo integratsiya asosida vatanparvarlik g'oyalarini singdirish.

Tarix, adabiyot, falsafa, madaniyatshunoslik, hatto tabiiy fanlarda ham milliy iftixor, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy ong g'oyalarini uyg'unlashtirish o'quvchilarda Vatanga bo'lgan hurmatni kuchaytiradi.

Tadqiqot jarayonida olingan kuzatuvlar va suhbatlar shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining shaxsiy namunasi talabalar uchun eng kuchli motivatsion omildir. Talabalar o'qituvchini nafaqat bilim manbai, balki hayotiy yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxs sifatida qabul qiladilar. Shu sababli pedagogning o'zida vatanparvarlik fazilatlarini sadoqat, fidoyilik, halollik, mehnatsevarlik va adolatparvarlik namoyon bo'lishi zarur.

Shuningdek, o'qituvchi milliy madaniyat, tarix va ma'naviyat sohalarida chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Bu unga o'z faoliyatida vatanparvarlik g'oyalarini nazariy jihatdan asoslash, talabalarga ilmiy, tarixiy va madaniy misollar bilan tushuntirish imkonini beradi. Ana shunda vatanparvarlik tarbiyasi tasodifiy yoki formal jarayon bo'lmay, balki tizimli, ongli va ta'sirchan pedagogik faoliyatga aylanadi.

Umuman olganda, o'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyasi va vatanparvarlik tarbiyasi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini boyitadi va mustahkamlaydi. Bu integratsiya natijasida o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-axloqiy qiyofasi shakllanadi, uning pedagogik faoliyatidagi samaradorlik ortadi va ta'lim jarayonida milliy g'urur hamda yurtparvarlik tuyg'ulari chuqur ildiz otadi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirish – bu ularning ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy strategik yo'nalishlardan

biridir. Ushbu jarayon yosh pedagoglarni milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, fuqarolik burchiga sadoqat va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Vatanparvarlikni o'qituvchilik kasbining ma'naviy-axloqiy negizi sifatida talqin etish, ularni barkamol shaxs sifatida shakllantirish jarayonini yanada samarali qiladi.

Bo'lajak o'qituvchining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uning kasbiy faoliyatida milliy g'oya va qadriyatlarni singdirish, o'quvchilarda ham Vatanga mehr va sadoqat tuyg'usini uyg'otish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonining ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatlarini uyg'unlashtirishga yordam beradi. O'qituvchi shaxsida vatanparvarlik fazilatlarining shakllanishi, uning professional kompetensiyasi, ma'naviy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarni milliy g'oya, tarixiy xotira va ma'naviy meros ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ta'lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini tizimli yo'lga qo'yish, pedagogik jarayonning barcha bosqichlariga singdirish, o'qituvchi shaxsining namunaviy faoliyatida bu qadriyatlarni ifodalash zarurdir.

Natijada, ta'lim tizimida milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati yuqori bo'lgan, ma'naviy barkamol, ijtimoiy faol va Vatanga sadoqatli avlodni voyaga yetkazish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mamlakatning barqaror taraqqiyoti, milliy birlik va ma'naviy yangilanish jarayonining asosiy kafolatlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2025-y., 06/25/126/0704-son.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2025-y., 03/25/1025/0116-son.
5. Abdullaeva D., Xolmatova M. Pedagogik ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyani rivojlantirish yo'llari. // Ta'lim va innovatsiya jurnali, 2019. – №2. – B. 45–52.
6. Alimova N. Ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishning innovatsion usullari. – Toshkent: TDPU, 2021. – 118 b.
7. Banks J.A. Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. – San Francisco: Jossey-Bass, 2008. – 320 p.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
9. G'afforova D. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 192 b.
10. Hasanov B. Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – Toshkent: TDPU, 2020. – 152 b.
11. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2001. – 596 p.

12. Musurmonova O. Ma'naviy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 208 b.

13. Nurmonov A. Bo'lajak pedagoglarda fuqarolik mas'uliyatini shakllantirish. – Samarqand: SamDU, 2019. – 140 b.

14 Shodmonov Sh., Qodirova N. O'qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ma'naviy qadriyatlarning o'rni. // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021. – №3. – B. 25–31.

15 UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 62 p.